

**TIL O‘RGANUVCHILAR O‘RTASIDA GAPIRISH KO‘NIKMASI
(SPEAKING SKILLS) NI DOIMIIY AMALIYOT, MUNOZARA VA DEBATLAR
HAMDA ROLLI MASHG‘ULOTLAR ORQALI OSHIRISH**

Shukurova Nodira Bakhtayarovna

O‘zDJTU Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrası o‘qituvchisi

Shomurodova Nilufar Sherzod qizi

O‘zDJTU Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili №3 fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola til o‘rganuvchilar o‘rtasida so‘zlashuv mahoratini oshirish uchun eng oddiy va samarali metodlarni ko‘rsatadi. Unda gapirish (speaking) ni oshirish uchun lozim bo‘lgan barcha usullar haqida so‘z boradi. Foydali metodlar orqali insonlar o‘zlarining gapirish qobiliyatlarini yanada yaxshilab, omma orasida bemalol gaplasha olishlari mumkinligi tushuntiriladi.*

Kalit so‘zlar: *so‘zlashuv mahorati, fikrlarni erkin ifoda etish, til o‘rganuvchilar, tilni amalda qo‘llay olish, so‘zlashish ko‘nikmalarini oshirishdagi muammolar, metodlar.*

Annotation: *This article shows the simplest and most effective methods of improving speaking skills among learners. It gives information about all the basic directions to increase speaking. It is explained that through useful methods, people can improve their speaking skills and be able to speak freely in public.*

Key words: *speaking skills, free expression of opinions, language learners, being able to use the language in practice, problems in increasing speaking skills, methods.*

Bugungi zamonaviy global jamiyatda, o‘zaro muloqotni o‘rnatish va madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun til bilish qobiliyati, ayniqsa so‘zlashish ko‘nikmalari muhim ahamiyatga ega. So‘zlashish, nafaqat tilni to‘g‘ri va ravon o‘rganish, balki, fikrlarni erkin ifoda etish va tinglovchiga tushunarli tarzda yetkazib berish uchun ham zarurdir. Ammo, ko‘pgina til o‘rganuvchilar yangi tilni o‘rganishda ba‘zi qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu maqolada, til o‘rganuvchilar o‘rtasida so‘zlashish mahoratini rivojlantirishning ahamiyati, qiyinchiliklari va samarali usullari mavjud.

Nutq mahoratini oshirishda gapirish qobiliyati juda muhimdir. U o‘quvchida faqat tilni to‘laqonli tushunishini taminlabgina qolmay, o‘z fikrini samarali yo‘l bilan ifodalashga ham imkon yaratadi. Yangi tilni o‘zlashtirishda bu ko‘nikmaning vazifasi katta, chunki u tilni amaliy tarzda qo‘llash imkonini beradi va quyidagi afzalliklarni o‘z ichiga oladi:

- tilni amalda qo‘llay olish;
- o‘z fikrini aniq va tushunarli ifodalash;
- o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish;

-odamlar bilan bemaol muloqot qila olish orqali qo'rqvni yengish va tilni yanada chuqurroq o'rganish.

Bundan tashqari nutq ko'nikmalari ishda, o'qishda, sayohatda va kundalik hayotda foydalanishda muhim ahamiyatga ega. So'zlashish mahoratini rivojlantirishdagi qiyinchiliklarga quyidagilarni misol qila olamiz:

So'z boyligining kamligi : Til o'rganuvchilar lug'at boyligining cheklanganligi muloqot vaqtida fikrni yetkazib berishda qiyinchilik tug'diradi.

Xato qilishdan qo'rqish: O'quvchilar, asosan, talaffuzdagi yoki grammatik xatolardan qo'rqib, suhbat qilishdan qochishga urinishadi. Bu esa muloqot ko'nikmasini rivojlanishini sekinlashtiradi.

Amaliyotning yetishmasligi: Ingliz tilida so'zlashish imkoniyatining sustligi yoki amalda qo'llanmasligi gapirish ko'nikmasini shakllantirishga to'sqinlik qiladi.

Til o'rganuvchilarning nutq ko'nikmalarini oshirish bir nechta samarali usullarni o'z ichiga oladi.

Doimiy amaliyot: ingliz tilida podkastlar, filmlar, qo'shiqlar, intervyularni eshitish va har bir detalga ahamiyat berib, unda o'rgangan yangi lug'atlar asosida gaplar tuzish va amaliyotda qo'llash hamda tinglagan gaplarni har kuni takrorlab turish orqali nutqni yanada mustahkamlash.

Munozara va debatlar: debatlar o'quvchilarga turli mavzularga oid suhbatlarga bemaol kirishib keta olish va fikrini aniq yetkazib berish orqali og'zaki nutqning shakllanishiga o'z hissasini qo'shadi.

Rolli mashg'ulotlar: hozirgi hayotdagi real vaziyatlarni yoritib beruvchi mashg'ulotlarda ishtirok etish ham nutq ko'nikmasining yaxshilanishiga hissa qo'shadi. Buyurtma berish, savdo qilish, biror bir hodisani rejalashtirish, mexmonxonadan xona bron qilish va shu kabilar bunga misol bo'la oladi.

Til o'rganish jarayonida gapirish ko'nikmasi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'nikmani mustahkamlash orqali o'quvchilar o'rgangan bilimlarini amalda qo'llashlari va har qanday muloqotga tez va oson kirisha olishlari mumkin. Xatolardan qo'rqmaslik, muloqot muhitini shakllantirish va o'rgangan ma'lumotlarini doimiy ravishda takrorlash til o'rganuvchilarga o'z nutq ko'nikmalarini yuqori darajaga ko'tarishlariga hissa qo'shadi. Til o'rganish – nafaqat bilim olish, balki dunyoqarashni kengaytirish va yangi imkoniyatlarga eshik ochishdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brown, H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Longman. (2001).

2. Ergashova, S., Yadgarova, L., Ziyodulloeva, M., Norova, F., & Yuldashova, N. (2022). The principles of using computer technologies in the formation and development of students' language skills. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 13(Special Issue 6). <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2116>
3. Harmer, J. *The practice of English Language Teaching*. Longman. (2007).
4. Hinkel, E. *Handbook of Research in Second Language Teaching and Learning*. Routledge. (2017)
5. Isakulova, B. K. (2024). Role of leadership style in teaching process. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 615–619. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6060>
6. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 234–239. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161>
7. Isakulova, B. K. (2023). The importance of teaching children English with early childhood with the help of game learning methods. *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*, 2(4), 352–360. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813228>, <https://ijaretm.com/index.php/ij/article/view/339>
8. Isakulova, B. K. (2024). Didactic games as a means of learning preschool children learn English. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10518781> <http://multidisciplinaryjournal.com/index.php/mm/article/view/104>
9. Nunan, D. *Practical English Language Teaching*. McGraw-Hill. (2003).
10. Richards, J.C., & Rogers, T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press. (2014).
11. Thornbury, S. *How to Teach Speaking*. Pearson Education. (2005).
12. Tuxtayevich, K. I. ., Ahmatovna, P. S. ., Turgunbayevna, M. N., Rasulovna, R. M. ., Qizi, T. F. R. ., & Qizi, Y. N. A. . (2024). Different Approaches to Enhance Critical Thinking in Digital Education. *SPAST Reports*, 1(7). <https://spast.org/ojspath/article/view/5086>
13. Yuldashova, N. A. qizi, & Ziyadulloeva, M. S. qizi. (2024). Essence of developing learners' communicative competence. *Golden Brain*, 2(1), 572–575. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6050>